

**“Kapitalbank” ATBda yuridik shaxslar va yakka  
tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmati  
ko‘rsatish to‘g‘risida kelishuvning  
8-ILOVASI**

**Mijoz tomonidan UZCARD EMV plastik kartasi saqlovchilariga xizmat ko‘rsatish  
TARTIBI**

**I. QO‘SHIMCHA ATAMA VA TA‘RIFLAR:**

**1.1.** Ushbu Tartibda qo‘yidagi atama va ta‘riflardan foydalaniladi:

**Karta** – Karta saqlovchisiga Karta hisobvarag‘i bo‘yicha bir necha marotaba transaksiya o‘tkazish imkoniyatini ta‘minlaydigan, Bank yoki O‘zbekiston Respublikasi tijorat banki tomonidan chiqarilgan, “UZCARD EMV” tizimining so‘mdagi mikroprotessorli plastik kartasi. Kartaning holati haqidagi joriy ma‘lumot YAUPMda aks etadi;

**UZCARD EMV**– bazaviy elementi mikroprotessorli “EMV” plastik kartasi bo‘lgan, haqiqiy vaqt rejimida transaksiyalar amalga oshadigan ichki naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi;

**Karta hisobvarag‘i** - undagi pul mablag‘laridan Karta vositasida foydalanish mumkin bo‘lgan kartaning bank hisobvarag‘i;

**Karta Saqlovchisi** - kartaning egasi yoki kartaning egasi vakolat bergan, emitenet bilan tuzilgan shartnomaga asosan Kartadan foydalanuvchi va Kartani sotib olingan tovarlar, ko‘rsatilgan xizmatlar va ishlar uchun to‘lov vositasi sifatida taqdim qiluvchi shaxs;

**YAUPM** –bank kartalarining dastlabki emissiyasini, transaksiyalarning avtorizatsiyasi, qayta ishlanishi va kliringini, “UZCARD” BTT doirasida banklar o‘rtasida o‘zaro axborot aloqasini va ularga bank kartalari bo‘yicha amalga oshirilgan banklararo transaksiyalarni tasdiqlash uchun ushbu transaksiyalar haqida ma‘lumotning yuborilishini ta‘minlovchi yagona umumrespublika protsessing markazi;

**Tartib** - UZCARD EMV plastik kartasi saqlovchilari bo‘lgan Mijozlarga xizmat ko‘rsatish Tartibi. Mazkur Tartib Bankning saytida joylashtirilgan; (Nado sprosit Bexzod aka, dannyy punkt i naimenovaniya Poryadka po smyslu otlichayutsya drug ot druga)

**“UZCARD” BTT (Banklararo to‘lov tizimi)** – huquqiy normalarning, normativ hujjatlarning, dasturiy-texnik qarorlarning va naqd pulsiz hisob-kitoblarni elektron shaklda amalga oshirishga mo‘ljallangan hamda karta emissiya qiluvchi, tovar/ishlar/xizmatlarni sotuvchilariga xizmat ko‘rsatuvchi, hisob-kitob qiluvchi banklarni va YAUPMni birlashtiruvchi tegishli tashkiliy-texnik infratuzilmaning yig‘indisiga asoslangan hududiy taqsimlangan to‘lov tizimi;

**Bank Qurilmasi** – Karta Saqlovchilarga xizmat ko‘rsatilishi uchun Bank tomonidan Mijozga taqdim qilinadigan texnik vositalar. Qurilmaga POS-terminal (quvvat adapteri va quvvat kabeli bilan birga), PINni kiritish uchun mijoz klaviaturasini kiradi. Ushbu orqali Bank, Bank beridagan Qurilmaga uchinchi shaxslarning biror-bir talabi va e‘tirozi yo‘qligini, nizoli va ta‘qiq ostida emasligini kafolatlaydi;

**POS terminal** – Mijozning tovarlari/ishlari/xizmatlari uchun karta orqali to‘lovlarni qabul qilishga va amalga oshirilgan transaksiyalar bo‘yicha real vaqt rejimida YAUPMdan Sliplarni (cheklarni) shakllantirishga mo‘ljallangan elektron qurilma;

**Slip** – transaksiyaning karta orqali amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hamda transaksiya summasi, transaksiya turi, transaksiya amalga oshgan sana haqidagi ma‘lumotni, shuningdek, kartani va ushbu Slipni shakllantirgan POS-terminalni identifikatsiya qilishga imkon beradigan ma‘lumotni o‘z ichiga olgan POS-terminal kvitansiyasi. Har bir amalga oshirilgan Transaksiyaga 2 nusxada Slip beriladi. Bir nusxasi karta Saqlovchisiga beriladi, ikkinchisi Mijozda saqlashini kerak;

**Transaksiya** – tovarlar/ishlar/xizmatlar haqini to‘lash uchun karta orqali amalga oshiriladigan to‘lov. Transaksiya karta Saqlovchisi tomonidan PIN-kod yordamida tasdiqlanadi;

**PIN-kod** – Karta hisobvarag‘ida hisobda turgan pul mablag‘larini tasarruf qilish huqukini tasdiqlovchi, shuningdek, Kartada saqlanadigan ma‘lumotlarga uchinchi shaxslarning kirishini cheklovchi Kartaning shaxsiy identifikatsion raqami. Pin-kod maxfiy ma‘lumot hisoblanadi va sir saqlanishi lozim. PIN-kodni saqlash bo‘yicha javobgarlik karta Saqlovchisi zimmasida bo‘ladi;

**Natijalarni solishtirish** – onlayn operatsiya, uni bajarish natijasida POS-terminalda mavjud barcha transaksiyalar, shuningdek, Reversal operatsiyalar qayta ishlash uchun YAUPMga yuboriladi. “Natijalarni

solishtirish” operatsiyasi POS-terminalda o‘tkazilgan barcha Transaksiyalarni YAUPM bilan solishtiradi. Ushbu operatsiya yordamida oldingi “Natijalarni solishtirish” operatsiyasigacha POS-terminalda o‘tkazilgan Transaksiyalarning miqdorini va summasini ko‘rish mumkin.

**To‘lovni qaytarish** – Karta Saqovchisining Karta orqali sotib olgan tovarlar/ishlar/xizmatlardan voz kechishi oqibatida Mijoz tomonidan tasdiqlangan va u tomonidan Bank belgilagan shaklda karta Saqlovchisining karta hisobvarag‘iga kirim qilish uchun pul mablag‘larini qaytarish. To‘lovni qaytarish naqd pul shaklda amalga oshirilishi mumkin emas.

**Reversal** – kommunikatsion xatoliklar (aloqadagi uzilishlar) sodir bo‘lganda Kartochka bo‘yicha POS terminaldagi transaksiyani bekor qilish. Haqiqiy transaksiya amalga oshirilganda slipda ushbu transaksiya xato o‘tkazilganligi haqida ma‘lumot ko‘rsatiladi;

**Stop list** – kartani yo‘qotilishi (o‘g‘irlanishi va boshq.) natijasida karta Saqlovchisi tomonidan Bankka rasmiy murojaat qilingandan so‘ng Bank tomonidan Transaksiyalar amalga oshirilishi ta‘qiqlangan Kartalar ro‘yxati;

**Bank Yo‘riqnomalari** – Mijozning karta Saqlovchilarning kartasi bo‘yicha xizmat ko‘rsatish, Bank Qurilmasidan foydalanish va Bank bilan ishlash jarayonlari hamda qoidalarini tushuntiruvchi hujjatlar. Bank Yo‘riqnomalariga rioya qilish Taraflar uchun majburiy hisoblanadi. Bank Yo‘riqnomasi Bankning Saytida joylashtirilgan.

1.2. Ushbu Tartibda foydalaniladigan atama va ta‘riflar Kelishuvdagi mazmun bilan bir xil mazmunga ega.

## II. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Mazkur Tartib to‘ldirilgan Mijoz Anketasiga (1-Ilova) asosan Taraflar uchun majburiy bo‘ladi (kuchga kiradi), anketaga asosan Bank Mijozga UZCARD EMV karta Saqlovchilariga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xizmatlarni taqdim qiladi.

2.2. Mazkur Tartib, Kelishuv, Tariflar, shuningdek Mijoz tomonidan lozim darajada to‘ldirilgan va imzolangan Ariza, birgalikda Mijoz va Bank o‘rtasida Mijozning UZCARD EMV plastik kartasi egalari xizmat ko‘rsatish shartnomasi (keyingi o‘rinlarda – “Shartnoma”) orqali tuzilgan hisoblanadi.

2.3. Mijoz tovarlar/ishlar/xizmatlar uchun karta Saqlovchilarning Kartasi bo‘yicha to‘lovlarni qabul qiladi, buning uchun Bank Mijozni Transaksiyalar bo‘yicha o‘zaro hisob kitoblarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan Bank Qurilmasi bilan ta‘minlaydi.

2.3. Mijoz har kuni natijalarni solishtiradi va Sliplarni shakllantiradi.

2.4. Bank Qurilmasi Bankning mulki hisoblanadi hamda Shartnomaning amal qilish davrida Mijozga vaqtincha egalish qilish va foydalanish uchun tekin bariladi. Bank Qurilmasi Shartnoma amal qilish muddati tugagandan so‘ng/bekor qilinganda 1 (bir) bank kuni ichida, shuningdek, nosoz/yaroqsiz bo‘lsa, almashtirilganda, eskirishini hisobga olgan holda qanday holatda olingan bo‘lsa shunday holatda Bankka qaytarib berilishi kerak.

2.5. Shartnoma bo‘yicha barcha hisob-kitoblar O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi so‘mda amalga oshiriladi.

2.6. Mijoz tomonidan berilgan Ariza Mijoz Yo‘riqnoma bilan tanishganligini va u bilan rozi ekanligini tasdiqlaydi.

## III. TARAFLARNING MAJBURIYATI

### 3.1. Bankning majburiyatlari:

3.1.1. Ariza berilgan kundan boshlab 5 (besh) bank kuni ichida Karta saqlovchilariga xizmat ko‘rsatishi uchun Bank Qurilmasini topshirish-qabul qilish Dalolatnomasiga asosan (2-Ilova) Mijozga vaqtincha egalik qilish va foydalanish uchun topshirish;

3.1.2. Bank Qurilmasini o‘rnatayotganda, shuningdek, Bank Qurilmasining ishi bilan oldin tanishtirilgan Mijoz xodimlari (ishchilari) ishdan bo‘shaganda Mijozning yozma murojaatiga asosan Mijoz xodimlarini (ishchilarini) undan foydalanish qoidalarini bilan tanishtirish;

3.1.3. Bank tomonidan YAUPMdan Kartalar bo‘yicha Transaksiyalar olingandan so‘ng keyingi bank kundan kechiktirmasdan barcha qayta ishlangan Transaksiyalar summasini Mijozning ushbu Tartibning 1-Ilovasida ko‘rsatilgan hisobvarag‘iga ko‘chirib berish;

3.1.4. Mijozning yozma arizasi bo‘yicha qayta ishlangan Transaksiyalar bo‘yicha ko‘chirma taqdim qilish;

### 3.2. Mijozning majburiyatlari:

3.2.1. Bank Qurilmasini qabul qilish, POS-terminalni o‘rnatish uchun joy taqdim qilish va topshirilgan Bank Qurilmasining saqlanishi va butligi uchun javobgar bo‘lish;

3.2.2. Shartnomaning butun amal qilish davrida Bank Qurilmasini soz holatda saqlash;

3.2.3. Bank Qurilmasini Uchinchi shaxslarga bermaslik;

**3.2.4.** Topshirish-qabul qilish Dalolatnomasigi asosan Bank Qurilmasi tekin foydalanishga va egalik qilishga topshirilgan paytdan uning tasodifan nobut bo'lishi yoki shikastlanishi bo'yicha javobgar bo'lish;

**3.2.5.** tovarlar/ishlar/xizmatlar uchun to'lovlarni Stop listda bo'lmagan Kartalardan qabul qilish;

**3.2.6.** natijalarni har kuni solishtirish;

**3.2.7.** Bankda Mijozning nomiga ochilgan hisobvaraqda ushbu Tartibning 5.1 yoki 5.2 yoxud 5.3 bandlariga asosan mablag'ni saqlash;

**3.2.8.** hisobvaraqda pul mablag'lari qoldig'i kamaygan paytdan boshlab 2 (ikki) bank kuni ichida oldindan to'lov summasini ushbu Tartibning 5.2 yoki 5.3 bandlarida ko'rsatilgan miqdorgacha to'ldirish;

**3.2.9.** Kartalar Mijoz tomonidan to'lov vositasi sifatida qabul qilinishini ko'rsatish uchungina o'z binosida Bank yetkazib bergan reklama belgilari yoki boshqa materiallarni lozim darajada namoyish qilish va Bank tasdiqlagan nomlar yoki tasvirlardan foydalanish;

**3.2.10.** Shartnoma shartlariga aloqador har qanday reklama materialini Bank bilan kelishish va uning yozma roziligini olish;

**3.2.11.** Sliplarning dublikatini ular shakllantirilgan kundan boshlab 1 (bir) yil mobaynida saqlash, shuningdek, Bankning birinchi talabi bilan ularni talab qilingan kundan boshlab 3 (uch) bank kuni ichida Bankka taqdim qilish;

**3.2.12.** Tovarlari/ishlar/xizmatlarga to'lov qilish uchun karta Saqlovchisi tomonidan taqdim qilingan Karta Stop list ro'yxatida bo'lsa, POS-terminal displeyida bu haqida tegishli xabar chiqadi, ushbu Kartani barcha qonuniy choralar bilan saqlash;

**3.2.13.** Sliplarni POS-terminal orqali chop etishda Bank tasdiqlagan sarf materiallaridan foydalanish;

**3.2.14.** Karta Saqlovchisiga Slipning nusxasini berish;

**3.2.15.** Ushbu Tartib shartlariga asosan Bankning Mijozdan talab qilish huquqi bo'lgan pul mablag'larini Tegishli xabar olingandan so'ng 1 (bir) bank kuni ichida Bankka qaytarish;

**3.2.16.** Bank Yo'riqnomasidagi barcha ko'rsatmalarni bajarish;

**3.2.17.** Shartnomaning amal qilish muddati tugagandan keyin yoki muddatidan oldin bekor qilinganida qurilmani topshirish-qabul qilish Dalolatnomasiga asosan Bank Qurilmasini 1 (bir) bank kuni ichida butun, to'liq holatda Bankka qaytarish. Bank Qurilmasining qaytarilganligi qurilmani topshirish-qabul qilish Dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi va tasdiqlanadi. Qurilmani topshirish-qabul qilish Dalolatnomasining shakli ushbu Tartibning 5-Ilovasida keltirilgan;

**3.2.18.** Bank Qurilmasi yo'qotilganda (o'g'irlangan va boshq) yoki nobut bo'lganda yoxud buzilganda nizosiz tartibda amaldagi Tariflar bo'yicha jarima summasini to'lash;

**3.2.19.** Amaldagi Bank Tariflariga asosan o'rnatilgan vositachilik haqi va jarimalarni Bankka o'z vaqtida va to'liq hajmda to'lash;

**3.2.20.** Karta Saqlovchilarining Kartalari orqali bir oy mobaynida Transaksiyalar amalga oshirishga imkoniyat bermaydigan, Mijozning savdo nuqtasida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan chora-tadbirlar (binoni ta'mirlash, inventarizatsiya, qayta hisob, davlat vakolatli organlari tekshiruvi va h.k) to'g'risida Bankni yozma ravishda ogohlantirish;

**3.2.21.** Shartnoma doirasida foydalaniladigan Bank Tariflaridagi, Yo'riqnomalaridagi va boshqa hujjatlaridagi o'zgarishlar haqida yangilangan ma'lumotlarni olish uchun doimiy ravishda Bankning Saytiga kirib turish;

**3.2.22.** Mijozda Bank tomonidan berilgan POS-terminaldan foydalanib amalga oshirilgan shubhali (gumonli) operatsiyalar aniqlanganda Bankning birinchi talabi bilan o'tkazilgan operatsiyalarning qonuniyligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim qilish;

**3.2.23.** Mijoz Anketasiga ishonchli ma'lumotlarni kiritish.(1-Ilova)

**3.3.** Taraflar maxfiylikka rioya qilishlari va ikkinchi tarafning yozma rozilgisiz ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari shart, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

**3.4.** Taraflar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va Kelishuvda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### **IV. TARAFLARNING HUQUQI**

##### **4.1. Bankning huquqlari:**

**4.1.1.** Quyidagi hollarda Shartnomani bir tomonlama bekor qilish (uni bajarishdan voz kechish):

- ushbu Tartibning 3.2 va 4.3 bandlari shartlarini buzganda, shuningdek, Mijoz bir oy mobaynida karta Saqlovchilariga xizmat ko'rsatmaganida;

- Bank Qurilmasidan Shartnomaga asosan yoki Bank Qurilmasining maqsadi bo'yicha foydalanilmaganida;

- Bank Qurilmasini soz holatda yoki uni saqlash bo'yicha majburiyatlarni bajarilmaganida;

- Bank Qurilmasining holatini sezilarli darajada yomonlashtirilganda;

- Bankning POS terminalidan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish maqsadlarida foydalanilganligi haqida Bank tomonidan asosli shubhalar aniqlangan kunda;
- hisobvaraqda mavjud pul mablag'lariga ta'qiq qo'yilganda yoki O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida ko'rsatilgan hollarda hisobvaraq bo'yicha operatsiyalar to'xtatib turilganda;
- Kelishuv va ushbu Tartibda ko'rsatilgan boshqa hollarda.

**4.1.2.** Bank tomonidan POS-terminal orqali shubhali (gumonli) operatsiyalar o'tkazilganligi aniqlanganida o'tkazilgan operatsiyalarning qonuniyligi haqida Mijozdan yozma tushuntirish olingunga qadar POS-terminalni Bankka qaytarish orqali Shartnomaning amal qilishini vaqtincha to'xtatib turish;

**4.1.3.** Quyidagi hollarda Mijozning Transaksiyalar bo'yicha pul mablag'larini ko'chirib berishni bir tomonlama to'xtatib turish:

- Bank qurilmasidan foydalanish qoidalarini buzish oqibatida Transaksiyalar haqida ma'lumotlar noto'g'ri shakllantirilgan bo'lsa;

- Karta Saqlovchisi Transaksiyalarga nisbatan da'vo kiritgan bo'lib, ushbu da'vo O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyatining vakolatli organlari tomonidan qanoatlantirilgan bo'lsa;

- Mijozni qayta tashkil etish va tugatish jarayoni mavjud bo'lsa. Bunday holatda Transaksiyalar bo'yicha pul mablag'larini ko'chirib berish tugatish komissiyasining yoki boshqa vakolatli organning tegishli qarorigacha to'xtatib turiladi;

- Mijoz tomonidan ushbu Tartibning 3.2.7 va 3.2.8-bandlariga asosan unga yuklatilgan majburiyatlar bajarilmayotgan bo'lsa;

**4.1.4.** Bank qurilmasidan foydalanish qoidalarini buzish natijasida Transaksiya qayta ishlashga noto'g'ri yuborilgan hollarda transaksiya bo'yicha pul mablag'larini ko'chirib bermaslik va Transaksiyani qayta ishlash bo'yicha xarajatlarni Mijozning zimmasiga yuklash;

**4.1.5.** Transaksiya o'tkazilganidan 30 kalendar kun yoki undan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa, va/yoki ushbu Tartibning 3.2.11 va 3.2.12 bandlaridagi shartlar buzilgan bo'lsa, Mijozning so'rovi bo'yicha transaksiyalarni tiklashga qaratilgan harakatlarni amalga oshirmaslik;

**4.1.6.** Oldin kirim qilingan Transaksiya bo'yicha shakllantirilgan Reversal summasiga teng miqdordagi mablag'larni qayta ishlashga yuborilgan Transaksiyalardan yoki talab qilib olinguncha asosiy/ikkilamchi hisobvaraqdan akseptsiz tartibda yechib olish;

**4.1.7.** Bank Yo'riqnomalarini bir tomonlama o'zgartirish;

**4.1.8.** Mijozdan Bank Tariflariga asosan vositachalik haqi undirish;

**4.1.9.** Quyidagi hollarda Mijozdan Bank Tariflariga asosan jarima undirish:

- Mijoz tomonidan Bank Qurilmasi yo'qotilganda (o'g'irlanganda va h.k.);

- topshirilgan Bank Qurilmasini ta'mirga yaroqsiz holga keladigan darajada nobut qilish va buzish.

Qurilmaning ta'mirga yaroqsiz holati ta'mir xizmati tomonidan o'tkazadigan ekspertiza natijalari bo'yicha aniqlanadi hamda ushbu xizmat tomonidan beriladigan xulosada ko'rsatiladi. Ekspertizani o'tkazish bo'yicha xarajatlar Mijozning zimmasida bo'ladi. Qurilmaning buzilganligi holati qurilmaning buzilganligi haqidagi Dalolatnoma (Tartibning 3-Ilovasi) bilan tasdiqlanadi. Yo'qolganlik holati yo'qolganlik Dalolatnomasiga ((Tartibning 3-Ilovasi)) asosan tasdiqlanadi;

**4.1.9.** Mijozning karta Saqlovchilarga xizmat ko'rsatayotganligi bo'yicha amaldagi faoliyati va faolligi ustidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda shubhali (gumonli) operatsiyalarni oldini olish va aniqlash uchun Mijoz joylashgan joy bo'yicha (pochta, yuridik manzili) monitoring olib borish.

## **4.2. Mijozning huquqlari:**

**4.2.1.** Amalga oshirilgan Transaksiyalar haqida ko'chirmani Bankdan yozma shaklda so'rash;

**4.2.2.** Bankdan Bank Qurilmasidan foydalanish qoidalari bo'yicha xodimlarini (ishchilarini) qo'shimcha o'qitishni yozma ravishda so'rash;

**4.2.3.** Joriy operatsion kundagi inkassatsiya summalari yoki o'tkazilgan transaksiya summalari Mijozning talab qilib olinguncha hisobvarag'ida aks etgan summalar bilan mos kelmaganda, Transaksiya o'tkazilganidan keyin 30 kun ichida summalaridagi ushbu noaniqliklarni bartaraf etish haqidagi so'rov bilan Bankka yozma ravishda murojaat qilish;

**4.2.4.** Bank Qurilmasi Mijoz javob bermaydigan holatlarda foydalanish uchun yaroqsiz qolsa, Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishni talab qilish.

## **4.3. Mijoz quyidagi huquqlarga ega emas:**

**4.3.1.** To'lov qaytarilganida naqd pul mablag'lari berish. To'lov qaytarilganida Mijoz pul mablag'larini karta Saqlovchisining karta hisobvarag'iga ko'chirib beradi;

**4.3.2.** Tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun Stop list ro'yxatida bo'lgan Kartalardan to'lovlarni qabul qilish;

**4.3.3.** O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan nazorat funksiyalariga ega shaxslardan tashqari, boshqa Uchinchi shaxslarga Bank Qurilmasini, sarf materiallarini va Transaksiyalar hamda ularni amalga oshirish usullari haqidagi ma’lumotlar berish;

**4.3.4.** Oldin qayta ishlashga yuborilgan Transaksiyalarni har qanday shaklda takroran qayta ishlashga yuborish.

**4.4.** Taraflar O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida va Kelishuvda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishlari mumkin.

## **V. XIZMATLAR UCHUN TO‘LOV MIQDORI VA ULARNI TO‘LASH TARTIBI**

**5.1.** Bankda ochilgan milliy valyutada talab qilib olinguncha hisobvaraq mavjud bo‘lganda, Mijozdan Terminalga xizmat ko‘rsatilganligi uchun vositachilik haqini Bank Tariflariga muvofiq memorial order asosida Bank tomonidan ushlab qolish har kalendar oyning 1 sanasida akseptsiz tartibda amalga oshiriladi. Bankning vositachilik haqi qurilmani topshirish-qabul qilish Dalolatnomasi sanasidan qati nazar kalendar oy uchun to‘liq hajmda undiriladi.

**5.2.** Mijoz Bankda milliy valyutada talab qilib olinguncha ikkilamchi hisobvarqqa ega bo‘lsa, Mijoz Terminalga xizmat ko‘rsatilganligi uchun vositachilik haqini Shartnoma tuzilgan paytdan boshlab 1 (bir) bank kuni kuni mobaynida Bankda ochiladigan 22896xxx hisobvarag‘iga pul ko‘chirish orqali oldindan to‘lov qiladi. Oldindan to‘lovning miqdori 500 000 (besh yuz ming) so‘mni tashkil qiladi. Terminallarga xizmat ko‘rsatilganligi uchun har oylik vositachilik haqi Bank tomonidan oldindan to‘lov summasidan har kalendar oyning 1 sanasida akseptsiz tartibda ushlab qolinadi.

**5.3.** Mijoz Bankda milliy valyutada ochilgan talab qilib olinguncha asosiy/ikkilamchi hisobvarag‘iga ega bo‘lmasa, Mijoz Terminalga xizmat ko‘rsatilganligi uchun vositachilik haqini Shartnoma tuzilgan paytdan boshlab 1 (bir) bank kuni kuni mobaynida Bankda ochiladigan 22896xxx hisobvarag‘iga pul ko‘chirish orqali oldindan to‘lov qiladi. Oldindan to‘lovning miqdori 500 000 (besh yuz ming) so‘mni tashkil qiladi. Terminallarga xizmat ko‘rsatilganligi uchun har oylik vositachilik haqi Bank tomonidan oldindan to‘lov summasidan har kalendar oyning 1 sanasida akseptsiz tartibda ushlab qolinadi.

**5.4.** Mijozning hisobvarag‘ida vositachilik haqini qoplash uchun pul mablag‘lari mavjud bo‘lmaganida yoki yetarli bo‘lmaganida, qarzdorlikning qoplanmagan qismi tegishli tartibda ijro qilinadigan to‘lov talabnomasi qo‘yish orqali Kartoteka-2 ga joylashtiriladi. Ushbu to‘lov talabnomasi biror-bir ko‘shimcha tasdiqlarsiz Mijoz tomonidan akseptlangan hisoblanadi.

**5.5.** Oyning 1 sanasi dam olish yoki ishlanmaydigan (bayram) kuniga to‘g‘ri kelsa, vositachilik haqini ushlab qolish undan keyin keladigan bank kunida amalga oshiriladi;

**5.6.** Terminal 1 sanadan keyin o‘rnatilganda, Bank Mijozdan terminallarga xizmat ko‘rsatganlik uchun har oylik vositachilik haqining to‘liq summasini Bank Tariflariga asosan qurilmani topshirish-qabul qilish Dalolatnomasi imzolangan sanada akseptsiz tartibda ushlab qoladi.

**5.7.** Shartnoma to‘xtatilganda yoki bekor qilinganida Bank Mijozdan terminallarga xizmat ko‘rsatganlik uchun har oylik vositachilik haqining to‘liq summasini Shartnomaning to‘xtatilgan yoki bekor qilingan sanasidan qat’i nazar, Bank Tariflariga asosan Shartnoma to‘xtatilgan yoki bekor qilingan sanada akseptsiz tartibda ushlab qoladi.

## **VI. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI**

**6.1.** Taraflar Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Kelishuv va ushbu Tartibga asosan javobgar bo‘ladi.

**6.2.** Mazkur Tartibning predmetiga bog‘liq holda Taraflardan biriga moddiy yoki moliyaviy zarar yetkazilganda aybdor tomon ushbu zararni qoplab beradi.

**6.3. Bank quyidagilar uchun javobgar bo‘lmaydi:**

**6.3.1.** quyidagi pul mablag‘larini undirish bo‘yicha:

- Shartnoma shartlariga mos kelmaydigan yoki zid bo‘lgan transaksiyalar bo‘yicha;

- Ushbu Tartibning 4.1.4-4.1.5 banlarida ko‘rsatilgan sabablar bo‘yicha;

**6.3.2.** YAUPM qurilmasidagi nosozliklar oqibatida kelib chiqqan Mijozning karta Saqlovchilarga xizmat ko‘rsata olmaganligi uchun;

**6.3.3.** POS-terminal dasturiy ta’minotidagi nosozliklar uchun.

**6.4. Mijoz quyidagilar uchun javobgar bo‘ladi:**

**6.4.1.** Sliplarning saqlanishi va Bankka o‘z vaqtida taqdim qilinishi uchun;

**6.4.2.** Mijoz tomonidan Stop list ro‘yxatini o‘z vaqtida yangilamaganligi oqibatida Stop list ro‘yxatida turgan Kartaga xizmat ko‘rsatganligi uchun;

**6.4.3.** Shartnoma shartlarini buzish oqibatida Mijoz tomonidan Bankka yetkazilgan zarar uchun;

**6.4.4.** Bank Qurilmasining butligi va ishlashi uchun.

**6.5.** Taraflardan biri Shartnoma shartlarini bajarishda Amaldagi qonunchilikni buzsa, ikkinchi Taraf buning uchun javobgar bo‘lmaydi.

## **VII. YAKUNIY QOIDALAR**

**7.1.** Shartnoma Mijoz tomonidan Ariza berilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va 1 (bir) yil muddatga amal qiladi. Taraflardan birortasi Shartnomaning amal qilish muddati tugagunga qadar 20 (yigirma) bank kuni oldin Shartnomani bekor qilish haqida istak bildirmagan bo'lsa, Shartnoma har bir keyingi kalendar yil uchun uzaytirilgan hisoblanadi.

**7.2.** Shartnoma quyidagi hollarda bekor qilinishi yoki to'xtatilishi mumkin:

- Kelishuv va ushbu Tartibda nazarda tutilgan hollarda Bank tomonidan bir tomonlama;

- Taraflardan birining tashabbusiga ko'ra ikkinchi Tarafni shartnomani bekor qilish yoki to'xtatishning ning taxminiy sanasidan 10 (o'n) bank kuni oldin ogohlantirish sharti bilan, bunda Mijoz unga topshirilgan Qurilmani ishlaydigan, butun va zarar yetkazilmagan holatda qurilmani topshirish-qabul qilib olish Dalolatnomasiga asosan Bankka qaytarib berishi, qurilma ta'mirga yaroqsiz darajada nobut qilinganda, yo'qotilganida yoki buzilganida Bankka Bank Tariflariga asosan jarima to'lash;

- Kelishuvda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

**7.3.** Mijozning Shartnoma bo'yicha Bank oldida qarzdorlikni to'lash bo'yicha majburiyati bo'lsa, u Bank oldidagi barcha majburiyatlarini bajaradi.

**7.4.** Shartnoma bekor qilinganida yoki to'xtatilganida, Bankda Mijozga ushbu Tartibning 5.2 yoki 5.3 banlaridagi shartlar asosida xizmat ko'rsatilayotgan bo'lsa va hisobvaraqda foydalanilmagan oldindan to'lov qolib ketayotgan bo'lsa, Taraflar o'rtasida solishtirma Dalolatnoma tuziladi, ushbu solishtirma daloltanoma asosan Bank pul mablag'lari qoldig'ini Mijozning O'zbekiston Respublikasining xoxlagan tijorat bankida ochilgan hisobvarag'iga ko'chirib beradi.

**7.5.** Shartnoma bekor qilinganida yoki to'xtatilganida Bank Tariflariga asosan vositachilik haqi to'lovlari Mijozga qaytarilmaydi.

**7.6.** Shartnoma bilan bog'liq nizolar taraflar tomonidan muzokara yo'li bilan o'zaro hal qilinadi. Nizolarni muzokara qo'li bilan hal qilishning imkoniyati bo'lmagan hollarda, nizolar Kelishuvda belgilangan tartibda hal etiladi.

**7.7.** Ushbu Tartibda nazarda tutilmagan Bank va Mijoz o'rtasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Kelishuv bilan tartibga solinadi.

**UZCARD EMV plastik kartasi saqllovchilari bo'lgan  
Mijozlarga xizmat ko'rsatish Tartibiga  
1-Ilova**

**MIJOZ ANKETASI**

Savdo nuqtasining nomlanishi \_\_\_\_\_

Savdo nuqtasi manzili: \_\_\_\_\_

Mo'ljal: \_\_\_\_\_

Rahbarning F.I.Sh. \_\_\_\_\_

Rahbarning aloqa telefonlari \_\_\_\_\_

Buxgalterning F.I.Sh. \_\_\_\_\_

Buxgalterning aloqa telefonlari \_\_\_\_\_

Kartalar bo'yicha olingan tushum kirim qilinadigan bank hisobvarag'i rekvizitlari \_\_\_\_\_

Faoliyat sohasi (Pullik xizmat/savdo korxonasi): \_\_\_\_\_

Mijoz tovarlar/ishlar/xizmatlarini realizatsiya qilish bo'yicha bir nechta shaxobchalarga ega bo'lsa va qurilmani o'rnatish joylari shahar/tumanning har xil qismida joylashgan bo'lsa, savdo nuqtalari haqida aloqa ma'lumotlarini ko'rsatishingizni iltimos qilamiz:

<i>Savdo nuqtasining nomlanishi</i>	<i>Aloqa ma'lumotlari</i>
_____ _____ _____	Manzil: Mo'ljal: Aloqa telefonlari: Aloqa qiluvchi shaxsning F.I.Sh.:
_____ _____ _____	Manzil: Mo'ljal: Aloqa telefonlari: Aloqa qiluvchi shaxsning F.I.Sh.:
_____ _____ _____	Manzil: Mo'ljal: Aloqa telefonlari: Aloqa qiluvchi shaxsning F.I.Sh.:
_____ _____ _____	Manzil: Mo'ljal: Aloqa telefonlari: Aloqa qiluvchi shaxsning F.I.Sh.:

Mijoz

\_\_\_\_\_  
(Imzo)  
M.O'.

Yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlarning haqiqiylikini tasdiqlayman va yuqorida ko'rsatilgan xodimlarni karta Saqlovchilarga xizmat ko'rsatish bo'yicha ma'sul etib tayinlayman.

“Kapitalbank” ATB  
tomonidan

\_\_\_\_\_  
Mijoz xodimi bilan instruktaj o'tkazdi.



**UZCARD EMV plastik kartasi saqlovchilari bo‘lgan  
Mijozlarga xizmat ko‘rsatish Tartibiga  
2-Ilova**

**QURILMANI TOPSHIRISH-QABUL QILISH DALOLATNOMASI**

Toshkent sh

“\_\_\_\_\_”yil “\_\_” “\_\_\_\_\_”

Boshqaruvchi:

\_\_\_\_\_

Plastik kartalar bo‘limi boshlig‘i:

\_\_\_\_\_

dan iborat “Kapitalbank” ATB Vakillari

va Mijoz vakili:

SXX Rahbar:

\_\_\_\_\_

tuzdilar ushbu Dalolatnomani shu haqidakim, quyidagi qurilma:

<b>№</b>	<b>Qurilmaning nomi</b>	<b>Miqdori</b>	<b>Seriya raqami</b>	<b>Inventar raqami</b>
<b>1</b>	Pos-terminal _____ (model) (quvvat adapteri va quvvat kabeli bilan birga)			
	<b>Jami</b>			

“Kapitalbank” ATB Vakillari tomonidan **TOPSHIRILDI**, Mijoz Vakili tomonidan esa **QABUL QILIB OLINDI**.

Qurilma topshirilayotgan vaqtda soz holatda, unga nisbatan uchinchi shaxslarning biror-bir talabi va e‘tirozi mavjud emas, nizoli va ta‘qiq ostida emas.

Aniqlangan kamchiliklarning kelib chiqish xususiyati va sabablari haqidagi vakillarning xulosasi: **kamchiliklar aniqlanmadi**.

Taraflar haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan dalolatnomani imzolaganlik uchun javobgarlik haqida ogohlantirilganlar.

**Bank tomonidan topshirildi:**

**Mijoz tomonidan qabul qilib olindi:**

**Boshqaruvchi**

\_\_\_\_\_

**F.I.Sh.**

M.O‘.

**Plastik kartalar bo‘lim boshlig‘i**

\_\_\_\_\_

Imzo

M.O‘.

**UZCARD EMV plastik kartasi saqllovchilari bo'lgan  
Mijozlarga xizmat ko'rsatish Tartibiga  
3-Ilova**

**QURILMANING BUZILGANLIGI HAQIDAGI  
DALOLATNOMA**

\_\_\_\_\_ sh

20\_\_y

“\_\_\_\_\_”

Biz quyida imzo chekuvchilar “Kapitalbank” ATB \_\_\_\_\_ Filiali Boshqaruvchisi  
\_\_\_\_\_ bir tomondan va keyingi o‘rinlarda  
\_\_\_\_\_ nomidan \_\_\_\_\_ asosida harakat  
qiluvchi Mijoz Rahbari ikkinchi tomondan, ushbu Dalolatnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

Terminal modeli: \_\_\_\_\_

Seriya raqami: \_\_\_\_\_

Tashqi holati: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

(tashqi shikastlanishlar ko'rsatilsin)

Nosozlikning xususiyati: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

(nosozlik qanday ifodalanganligi ko'rsatilsin)

Ishlashga yaroqsizlik sabablari: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

(buzilishning sababi va buning oqibatida Shartnomaning qaysi bandlari buzilganligi ko'rsatilsin)

**DALOLATNOMA ikkita bir xil nusxada tuzilgan**

**TARAFLARNING IMZOSI:**

**Bank tomondan:**

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

(F.I.Sh., lavozimi)

\_\_\_\_\_

(imzo, sana)

**Mijoz tomondan:**

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

(Rahbarning F.I.Sh.)

\_\_\_\_\_

(imzo, sana)

M.O'.



**UZCARD EMV plastik kartasi saqlovchilari bo'lgan  
Mijozlarga xizmat ko'rsatish Tartibiga  
4-Ilova**

**YO'QOLGANLIK DALOLATNOMASI**

\_\_\_\_\_ sh 20\_\_y "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_

Biz quyida imzo chekuvchilar "Kapitalbank" ATB \_\_\_\_\_ Filiali Boshqaruvchisi  
\_\_\_\_\_ bir tomondan va keyingi o'rinlarda  
\_\_\_\_\_ nomidan \_\_\_\_\_ asosida harakat  
qiluvchi Mijoz Rahbari ikkinchi tomondan, ushbu Dalolatnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

Terminal modeli: \_\_\_\_\_

Seriya raqami: \_\_\_\_\_

Yo'qolish sabablari: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

(yo'qolishning sabablari va buning oqibatida Shartnomaning qaysi bandlari buzilganligi ko'rsatilsin)

**DALOLATNOMA ikkita bir xil nusxada tuzilgan**

**TARAFLARNING IMZOSI:**

**Bank tomonidan:**

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

(F.I.O., lavozimi)

\_\_\_\_\_

(imzo, sana)

**SXX tomonidan:**

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

(Rahbarning F.I.Sh.)

\_\_\_\_\_

(imzo, sana)

M.O'.

**UZCARD EMV plastik kartasi saqlovchilari bo'lgan  
Mijozlarga xizmat ko'rsatish Tartibiga  
5-Ilova**

**QURILMANI TOPSHIRISH-QABUL QILISH DALOLATNOMASI**

\_\_\_\_\_ sh. 20\_\_y "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_.

Ushbu dalolatnoma tuzildi, shu haqidakim, quyidagi qurilma:

<b>№</b>	<b>Qurilma nomi</b>	<b>Miqdori</b>	<b>Seriya (inventar) raqami</b>
<b>1</b>	Pos-terminal _____ (model) (quvvat adapteri va quvvat kabeli bilan birga)		
	<b>Jami</b>		

“Kapitalbank” ATB \_\_\_\_\_ filiali Boshqaruvchisi \_\_\_\_\_ va Plastik kartalar bo'limi boshlig'i \_\_\_\_\_ dan iborat tarkibdagi “Kapitalbank” ATB vakillari tomonidan qabul qilib olindi, \_\_\_\_\_ tomonidan esa topshirildi.

Qurilma topshirilgan paytda \_\_\_\_\_ da joylashgan.

Aniqlangan kamchiliklarning kelib chiqish xususiyati va sabablari haqidagi vakillarning xulosasi:

Taraflar haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan dalolatnomani imzolaganlik uchun javobgarlik haqida ogohlantirilganlar.

**Bank tomonidan qabul qilindi:**

**Mijoz tomonidan topshirildi:**

Boshqaruvchi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
Rahbarning F.I.Sh.

M.O'.

PK bo'limi  
boshlig'i \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
Imzo

M.O'.

**QURILMANI TOPSHIRISH-QABUL QILISH DALOLATNOMASI**

\_\_\_\_\_ sh. 20\_\_y "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_.

Ushbu dalolatnoma tuzildi, shu haqidakim, quyidagi qurilma:

<b>№</b>	<b>Qurilma nomi</b>	<b>Miqdori</b>	<b>Seriya (inventar) raqami</b>
<b>1</b>	Pos-terminal _____ (model) (quvvat adapteri va quvvat kabeli bilan birga)		
	<b>Jami</b>		

“Kapitalbank” ATB \_\_\_\_\_ filiali Boshqaruvchisi \_\_\_\_\_ va Plastik kartalar bo'limi boshlig'i \_\_\_\_\_ dan iborat tarkibdagi “Kapitalbank” ATB vakillari tomonidan qabul qilib olindi, \_\_\_\_\_ tomonidan esa topshirildi.

Qurilma topshirilgan paytda \_\_\_\_\_ da joylashgan.

Aniqlangan kamchiliklarning kelib chiqish xususiyati va sabablari haqidagi vakillarning xulosasi:

Taraflar haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan dalolatnomani imzolaganlik uchun javobgarlik haqida ogohlantirilganlar.

**Bank tomonidan qabul qilindi:**

**Mijoz tomonidan topshirildi:**

\_\_\_\_\_

Boshqaruvchi \_\_\_\_\_

M.O'.

PK bo'limi  
boshlig'i \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
Rahbarning F.I.Sh.

\_\_\_\_\_  
Imzo

M.O'.